



O‘ZBEK TILIDA O‘XSHATISHNI YUZAGA KELTIRUVCHI GRAMMATIK VOSITALAR HAQIDA

Yusupova Gulnoza

Samarqand davlat universteti

Kattaqo‘rg‘on filiali talabasi,

Ilmiy rahbar: *Rustamov Mirjalol,*

SamDUKF, O‘zbek tili va gumanitar

fanlar kafedrası o‘qituvchisi.

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o‘zbek tilida o‘xshatishni yuzaga keltiruvchi grammatik vositalar haqida fikr yuritilgan.*

Kalit so‘zlar: *O‘xshatish, o‘xshatish obyekti, individual o‘xshatishlar, turg‘un o‘xshatishlar, tashbeh, o‘xshatish turlari, logik o‘xshatishlar, grammatik belgili o‘xshatishlar*

O‘xshatish insonlarning narsa yoki hodisa haqidagi tasavvurlarini voqelantirish uchun ifodalanuvchi lingvosub’ektiv vositadir. Bundan yozuvchi mohirona foydalangan holda asar qahramonlarini tipiklashtirishda, ularning o‘ziga xos individual xususiyatlarini ochishda, ruhiy (intim) holatlarini aks ettirishda, makon va zamon tasvirini berishda o‘zining betakror uslubini yaratadi.¹

O‘zbek tilida o‘xshatish hosil qilishning eng mahsuldor usuli affiksatsiya usulidir. Hozirgi o‘zbek adabiy tili uslubi faktlaridan ma’lum bo‘ladiki, affiksatsiya usuli bilan o‘xshatish shakli hosil qilishda –dek, -day, -dan, -simon, -ona, -omuz, -chasiga, -racha, -cha affikslari ishtirok etadi. Lekin bularning o‘xshatish hosil qilishdagi faolligi, mahsuldorlik darajasi bir xil emas. Yozuvchi bir narsa-predmet, hodisani ikkinchi bir narsa-predmet va hodisaga qiyoslar ekan, bu bilan u faqat tasvirlanayotgan narsa-predmet, hodisa haqida tasavvur hosil qilishnigina o‘z

¹ Хасанов А. Абдулла Қаҳҳор ҳикоялари тилининг семантик-стилистик хусусиятлари.



oldiga maqsad qilib qo‘ymaydi, balki kishilar ana shu o‘xshatilayotgan narsa-predmetga nisbatan o‘z munosabatini ham bildiradi, ya‘ni u yoki bu narsa-predmet, hodisani o‘z nuqtai nazaridan baholaydi.

R.Qo‘ng‘urov *-day/-dek, -dayin, -simon, -ona, -namo, -larcha, -omuz, -cha, -chasiga* kabi birliklarni o‘xshatishni yuzaga keltiruvchi grammatik vositalar sifatida maxsus o‘rgangan: O‘zbek tilida bir nechta affiks borki, ular biror predmet, belgi yoki holatni boshqalariga o‘xshatish, qiyos qilish uchun xizmat qiladi. Ularni quyidagicha sanab ko‘rsatish mumkin: *-day (-dek), -simon, -ona, -namo, -larcha, -omuz, -char, -chasiga, -dan, -li.* Bu affikslar, odatda, o‘xshatish obrazini ko‘rsatuvchi so‘zga qo‘shiladi va biror predmet, belgi yoki holatni shu so‘z orqali ifodalangan predmet yoki belgi bilan qiyos qilishga yordam beradi. Bu affikslarning ba‘zilari grammatik jihatdan sifat (*-simon, -day, -dek, -li*) yasovchi affikslar hisoblansa, ikkinchi bir xillari ravish (*-larcha, -omuz, -cha, -chasiga*) yasash uchun xizmat qiladi¹. Misollar: *-day/-dek: Qolaversa oqimdek, seldek, yuragida balqqancha quyosh - Inqilobning, sarbadorlarning qo‘shig‘iga bo‘lib ohangdosh* (N.Oston), *Qorabayir otini qichar chavadoz nuqul. Qoyaga chirmashadi qilko prikday ensiz yo‘l* (N.Oston); *-dayin: Ko‘z oldimda kiprikdayin tizilar yillar, Har biriga marjon bo‘lur achchiq unlarim* (A.Oripov). *Bulutdayin bosib kelar yov,/ Alplar davra solar, otlari asov* (H.Olimjon); *-simon: shishasimon, halqasimon, gumbazsimon, gazsimon, yulduzsimon, odamsimon, qalqonsimon, konussimon, daraxtsimon, ayiqsimon, yog‘simon; -ona: odilona, razilona, olimona, kamtarona, mohirona, hiylakorona, riyokorona, makkorona, fidokorona, xiyonatkorona, san‘atkorona, ehtiyotkorona, jinoyatkorona, takabburona; -namo: telbanamo, avliyonamo, jinninamo, hazilnamo, darveshnamo; -larcha: telbalarcha, bolalarcha, mardlarcha, xoinlarcha, qahramonlarcha, botirlarcha, surbetlarcha, noinsoflarcha, ablahlarcha, qardoshlarcha, o‘rtoqlarcha; -omuz: nasihatomuz,*

¹ Қўнғуров Р. Ўзбек тили стилистикасидан очерклар. 1-қисм. – Самарқанд: СамДУ нашри, 1975. 212-233-б.



maslahatomuz, kinoyaomuz, ibratomuz; -cha/-chasiga: ayyorcha, askarcha, o'g'irlikcha, yashiriqcha, tentakchasiga, o'g'rinchasiga, dehqonchasiga, mardchasiga kabi.

Professor S.Karimov o'xshatishni yuzaga keltiruvchi grammatik vositalar sirasiga qo'yidagilar kirishini aytadi: – *day, (-dek) -dak -(tak) -dag' (-dog')* -dayin, -dan, -dir, -namo, -simon, -ona, -omuz, -li, -cha, (-larcha, -chalik, -chasiga) kabilar. Badiiy uslubda ushbu vositalarning hammasidan keng jabhada foydalanish mumkinligi ham o'ziga xoslikdir. Hech qaysi funksional uslubda o'xshatishdan bu darajada mahsuldor foydalanilmaydi. Boshqa uslublarda ular predmet va hodisalarni shunchaki qiyoslab, o'xshatish sub'ekting ma'nosini konkretlashtirish uchun xizmat qilsa, badiiy uslubda shu bilan bab-baravar, badiiy-estetik vazifani ham bajaradi. Metaforik o'xshatishlar buning yaqqol dalilidir. Bu o'xshatishlar ommabop (publitsistik) uslubning ayrim janrlaridan tashqari boshqa uslublar uchun asosiy vosita hisoblanmaydi. Hamid Olimjonning «Zaynab va Omon» poemasi shunday o'xshatish bor: *Qiz ko'ziday qora edi tun*. Tunni qora, qop-qora, tim qora deyish mumkindir. Ammo uni yana kuchaytirib, qiz ko'ziga o'xshatishga nima zarurat bor? Qizning ko'ziga o'xshatilib tunga urg'u berilayaptimi yoki aksinchami? Bu yerdagi yuksak badiiylik shundaki, ijodkor uchun har ikki obraz ham, ularning uyg'unligi ham muhim. Shunday paytda teskari jarayon ham ro'y berishini, o'xshatish ob'ekti va sub'ekti o'z o'rnini bimalol almashtirishi mumkinligini payqaymiz. Matn bilan keng ko'lamda tanishish buni tasdiqlaydi².

Bundan tashqari, o'xshatishni yuzaga keltiruvchi vositalar ichida, asosan badiiy uslub uchun xarakterli bo'lgan elementlar mavjud. Masalan, grammatik vositalarni, xususan, hozirgi o'zbek adabiy tili normasiga mos keladigan

² Каримов С.А. Каримов С.А. Бадий услуб ва тилнинг ифода тасвир воситалари. Ўқув қўлланмаси. – Самарқанд: СамДУ нашриёти. 1994. – Б.13.



ko‘rinishlarini olib qaraylik. Ularning hammasi ham sharoit, zarurat talabidan kelib chiqib badiiy adabiyot tilida bimalol ishlatilaverishi mumkin. Masalan: *Shu sandiqni daryoga bir oqizsam deb o‘ylar goh, Botayotgan kunga qarab, artmasdanam yoshini. Ajab emas Tohirdayin ul tirilib chiqsa oh, Tohirdayin... yo‘q Tohirday ko‘tarmas ul boshini* (H.Xudoyberdieva. Eski sandiq). Ammo shu bilan birga, qo‘plab misollar tahlili *-day, -dayin* ning asosan so‘zlashuv uslubiga, *-dek* ning esa badiiy uslubga moyilligini ko‘rsatadi: Munajjim tasbehidan to‘kilgan *donalardek* Osmon uzra sochilib yarqiraydi yulduzlar. Oy sha‘mu tegrasida uchgan *parvonalardek* To sahar javlon urib pir piraydi yulduzlar (E. Vohidov. Samarqand kechasi). Uning tarixiy ko‘rinishlarini ham, hozirgi adabiy til normasi nuqtai nazaridan, shu uslub doirasiga kiritaverish mumkin. Shuningdek, *-cha (-chalik, -chasiga), -dan, -namo* elementlarining ko‘pincha so‘zlashuv uslubida, *-simo, -ona, -omuz* qo‘shimchalarining ilmiy va ommabop uslublarda ishlatilishi ko‘zga tashlanadi va bu narsa o‘xshatishdagi grammatik vositalarning uslubiy chegaralanishidan dalolat beradi. O‘xshatishlar ishtirok etadigan gaplarning ayrim struktural tiplari, masalan, o‘xshatish oborotlar, o‘xshatish ergash gaplar ham asosan ilmiy va badiiy uslublarga tegishlidir³.

Professor S.Karimov fikrini T.Rasulovning qarashlari bilan dalillaydi: «Haqiqiy san’atkor ijodida, – deydi T. Rasulov. – o‘xshatish xususiylik bilan umumiylikning estetik birligi sifatida namoyon bo‘ladi. Biz o‘xshatishning badiiy funksiyasi deganda ana shu «birlikni tushunamiz»⁴ Mana uning eng yaxshi namunalari: *Chilla kuni hammomdan chiqa kelgan kuyovday Paxtakor o‘zbek yeri havr ila, g‘ubor ila* (G‘. G‘ulom. Porloq istiqbol uchun), *Oyoqlangan qo‘ziday dovdidar yelda maysa*, *Ko‘m-ko‘k moviy osmonda kezib yurar oq bulut* (A.Oripov. Qarshi qo‘shig‘i). O‘xshatishdan badiiy uslubda foydalanishda yana ayrim o‘ziga

³ Каримов С.А. Кўрсатилган асар. –Б.14.

⁴ Расулов Т. Бадий тасвир ва образли тасвирий воситалар// Ўзбек тили ва адабиёти, 1965. №5, – Б 10.



xosliklar ko‘zga tashlanadi. Masalan, asar muallifi voqealar tugunini o‘z qo‘lida ushlab turar ekan, bayon davomida go‘yo o‘zini bilmaydigan holatga solib, o‘xshatish yordami bilan o‘quvchini bundan keyin yuz beradigan – ayniqsa qayg‘uli – voqealarga ruhan tayyorlaydi: Mirzo Ulug‘bek ko‘z yoshlarini artib, quchog‘ini ochdi. Ustod bilan shogird, go‘yo *abadulabad diydor ko‘rishmasliklarini sezganday*» unsiz yig‘lashib uzoq vidolashishdi (O. Yoqubov. Ulug‘bek xazinasi), Qalandar *mudhish bir napca po‘y beradiganday* yuragi achishib otning jilovini tortdi... (O. Yoqubov. O‘sha asar).

Yana bir o‘ziga xoslik, badiiy asar matnida bir-birlariga mutlaqo aloqasi bo‘lmagan narsa va hodisalar ham o‘xshatish ob‘ekti va sub‘ekti sifatida ishtirok etishi mumkin. «Ulug‘bek xazinasi» romanida she‘r misrasi va kesilgan bosh, garchi bir-birlaridan uzoq tushunchalar bo‘lsa ham, xuddi ana shunday vazifani bajargan. Sarosima va vasvasa dardiga muhtalo bo‘lgan Abdulatif tush ko‘radi. Tushida amir Jondor uning o‘z kallasini oldiga keltirib tashlaydi. Dodlab uyg‘ongan shahzoda o‘ziga kelgach, nima bilandir andarmon bo‘lish maqsadida javondagi qalin kitobni oladi:.... kitobni ochganda ko‘zi tushgan ilk misralar... tushida ko‘rgan qonli kalladan ham dahshatli edi... Shahzoda yuragini changallaganicha ko‘zini yumdi, lekin zarhal harflar bilan bitilgan sirli misralar xuddi boyagi qonli kalladay ko‘z oldidan ketmay, olovday lovillab turardi. Yana bir turdagi o‘xshatishlar haqida mulohaza yuritishga to‘g‘ri keladi. «Ulug‘bek xazinasi» kitobida shunday o‘xshatish bor: Ana o‘ng tomondagi tog‘ cho‘qqilari cho‘g‘day yallig‘lanib, *Samarqand noniday yum-yuma-loq to‘lin oy* ko‘rindi. To‘lin oy nonga, yoki aksincha, o‘xshatilishi mumkin. Bundan juda katta bir badiiylik axtapmaca ham bo‘ladi. «Samarqand noniday» deyish ham mumkin. Ammo xuddi shu matnda to‘lin oyning Samarqand noniga o‘xshatilishi yuksak badiiylik tashuvchi vosita bo‘lganligini va shu tufayli qimmatli ekanligini undan oldingi bayondan – o‘z yurtiga qaytib ketishga otlangan Qalandardar Qarnoqiyning



ruhiy holatidan, xayolidan anglaymiz: Xuddi o‘z ukalariday bo‘lib qolgan bu og‘a-inilar bilan quchoqlashib xayrlashdi-da, jilg‘a bo‘ylab otini yo‘rttirib ketdi. Lekin xayoli hamon Samarqandda. Ko‘z oldidan hamon ustodning g‘amgin chehrasi ketmas, quloqlari ostida hamon ustaning hayajonli gaplari, bergan oq fotihasi yangrab turardi. U go‘yo shaharning har bir dahasi, har bir guzari, har bir ko‘chasiga kirib chiqar, xayolan goh rasadxona bilan, goh salkam yigirma besh yil tuprog‘ini yalab o‘tgan Ulug‘bek madrasasi bilan vi-dolashar edi... Darhaqiqat, Qalandar Qarnoqiy uchun Samarqand go‘yo nonday aziz bo‘lgani tufayli uning ko‘ziga to‘lin oy ham non kabi ko‘rinadi.

O‘xshatishning badiiy uslubda faol ekanligi faqatgina son jihatdan emas. Badiiy asap obrazlilikining o‘zini o‘xshatishlarsiz tasavvur qilish qiyin, go‘yo u butun bir organizmning uzviy a‘zosi kabi badiiylik bilan hamohangdir⁵.

Ma’lumki, o‘xshatish obrazi bo‘lgan predmet yoki hodisaning ijtimoiy ongda qanday baholanishiga bog‘liq holda o‘xshatishda ijobiy yoki salbiy munosabat ifodalanadi. Obrazning ongda ijobiy baholanishi o‘xshatish ob’ektidagi ijobiy xususiyatlarini bo‘rttirishga, salbiy baholanishi o‘xshatish ob’ektidagi salbiy xususiyatlarni bo‘rttirishga xizmat qiladi. Bir predmet yoki hodisani ikkinchi bir predmet yoki hodisa bilan taqqoslansa, ularning shakl yoki mazmun tomonidan timsolli o‘xshashligi hisobga olinadi. Har bir o‘xshatishda o‘xshatish sub’ekti, o‘xshatish ob’ekti va asoslarning o‘zaro mos kelishi mavjud bo‘lishi kerak. Bularning ustidan o‘xshatish belgisi hukmronlik qiladi. O‘xshatish belgisi ikki narsaning bir-biriga mos kelishidir. Moslashish sub’ekt, ob’ekt asoslarining o‘zaro mosligi muhim rol o‘ynaydi. Ushbu ma’nolar yuzaga chiqishida grammatik vositalar muhim rol o‘ynaydi.

⁵ Каримов С.А. Кўрсатилган асар. –Б.14.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Расулов Т. Бадий тасвир ва образли тасвирий воситалар// Ўзбек тили ва адабиёти, 1965. №5, – Б 10.
2. Хасанов А. Абдулла Қаҳҳор ҳикоялари тилининг семантик-стилистик хусусиятлари.
3. Маҳмудов Н. Ўхшатишлар – образли тафаккур маҳсули // Ўзбек тили ва адабиёти. – Т., 2011. – № 3. – Б.9
4. Языковые процессы современной русской художественной литературы. – М.: Наука, 1977. – С. 241.
5. Абдуллаев А. Ўзбек тилида экспрессивлик ифодалашнинг синтактик усули. – Тошкент: Фан, 1987. – 88 б.
6. Абдиев М. Ўхшатиш модели асосида ҳосил қилинган касб-ҳунар терминлари / Ўзбек тили ва адабиёти. -2003.-№3.-Б.55.
7. Античные теории языка и стиля. – М. Л.: ОГИЗ, 1936. – 360 с.
8. Виноградов В.В. О теории художественной речи. – М.: Высшая школа, 1971. – 240 с.
9. Винокур Т.О. О языке художественной литературы. – М.: Высшая школа, 1971. – 447 с.
10. Воҳидов Э. Сўз латофати. – Тошкент: Ўзбекистон, 2018. – 212 б.
11. Ёқуббекова М. Ўзбек халқ кўшиқларида ўхшатишларнинг табиатига доир / Ўзбек тили ва адабиёти.-2000.-№6.-Б.32.
12. Ёўлдошев М. Бадий матн ва унинг лингвопоэтик таҳлили асослари. – Тошкент: Фан, 2007. – 123 б.
13. Каримов С.А. Бадий услуб ва тилнинг ифода тасвир воситалари. Ўқув қўлланмаси. – Самарқанд: СамДУ нашриёти. 1994. – Б.10.